
Nogironlik aravachasi berildi

Rishton tumanida nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinayotir. Ana shunday ezgu ishlardan biri bugun Dasht-Pandigon mahallasida tashkil etildi. Dasht-Pandigon MFY faxriylar kuchasida yashovchi 94  shli Toshmatova Tojinisa onaga nogironlik aravasi berildi. Onaxon bir necha yillar jamoa xo'jaligida, dalada mehnat qilib bugun nabira-yu va evaralari bag'rida umrguzaronlik qilmoqda. Lekin, bir necha yil davomida mustaqil yurishga qiynalar edi. Bugun tuman IIB boshlig'i, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi xodimdari onaxonning xonadoniga tashrif buyurib, uning holidan xabar olishdi. Dildan suhbat davomida mo'tabar onaxonga nogironlik aravachasi topshirildi. Endi mushkuli oson bo'lgan onaxon keksalarga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rliklar uchun o'z minnatdorchiligini izhor etdi.

2022-06-15 16:34:28